

**PAREMIOLOGIYA – XALQNING MILLIY MADANIYAT ASOSI SIFATIDA  
(INGLIZ VA O'ZBEK TILI QIYOSIDA)**

**Ro'ziqulova Guliruxsor G'ofur qizi**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika  
universiteti Olmaliq filiali O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrası o'qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7162578>**

Annotatsiya: Tilshunoslikda frazeologiya sohasi uzoq tarixga ega bo'lmagan sohalardan biri hisoblanadi. Alohida bo'lim sifatida ajralib chiqquniga qadar uzoq yillar mobaynida leksikologiyani tarkibida o'rganilib kelingan. Bugungi kunga qadar frazeologiya sohasi bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar qilinganligiga qaramasdan, hali hali ochilmagan ko'pgina qirralarga ega. Jumladan biri frazeologik birliklarni nutqda tayyor bo'lmagan boshqa birliklardan farqlab ajrata olish bo'lsa, yana biri frazeologiyani bahsli muammolaridan biri uni tor va keng ma'noda tushunishdir.

Kalit so'zlar: Paremiologiya, parema, frazeologiya, frazeologik birliklar, maqol, matal, ibora, mantiqiy umumlashma

Paremiologiya so'zi grekcha paranomia – hikmat, va logos – ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, ma'lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Ya'ni ma'lum bir xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamyatga bo'lgan munosabatini, kuzatishlar va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy xolati, etik va estetik tuyg'ularini, ijobiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og'zaki formada ko'chib yuruvchi, ixcham va soda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi Paremiologiya deyiladi. Bu kabi birikmalarni to'plash bilan esa Paremiografiya sohasi shug'ullanadi.

Yevropa tilshunosligida XVIII asrning boshlarida German paremiografi W. Wander Yevropa xalqlariga oid 250,000 dan ortiq maqollarni o'z ichiga olgan 5 ta kitobdan iborat paremiologik lug'atni yaratdi. Va bu ishi bilan u zamonaviy Yevropa tilshunoslikda paremiografiya sohasiga tamal toshini qo'ydi. Biroz vaqtdan so'ng R.C. Trench "On the Lessons of Proverbs" nomli kata hajmli Ingliz tili paremiologik lug'atini yaratdi. Va bu asar Ingliz va American nashrlari paremiologiya sohasi bilan shug'ullanuvchilar uchun mukammal qo'llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bu asarda maqollarning anglatadigan ma'nosi, kelib chiqishi, paydo bo'lishi, nazariyasi atroflicha yoritilgan. Shundan so'ng bir

necha tadqiqotchilar paremiologiya sohasiga qiziqib, maqollarni to'plashgan, nashr qilishgan.

Bularning ichida eng mashhur tadqiqotdchilardan biri A. Taylor o'zining 223 sahifadan iborat "The Proverb" asarida maqollarni atroflicha tahlil qilgan va paremiologiya sohasining qay darajada boy soha ekanligini ko'rsatib bergan. Jumladan, asarning birinchi qismida u maqollarning kelib chiqishi, muammolari, tarifi, metaforik maqollar, proverbial(maqolga oid) turlar, variantlari, xalq og'zaki ijodiga oid maqollar, maqollar va adabiyot, boshqa tillardan kirib kelgan maqollar, biblical maqollar va tub maqollar va ularning muqobil variantlari haqida bo'lsa, ikkinchi qismida esa maqollarni tarixiy, tub, o'zlashgan, huquqiy, mahalliy, diniy, ob- havo va tibbiyotga oid, urf odatlarni o'zida mujassamlashtirgan iboralarni turkumlarga ajratgan.

O'zbek folklorida maqol, tabu, va topishmoq singari janrlar hikmatga yo'g'rilganligi, g'oyat ixcham, siqiq, lo'nda va obrazli ifodalanishi bilan xalq paremik ijodini tashkil qiladi. Biroq u hanuzgacha alohida adabiy tur sifatida etirof etilmay, goh xalq nasri, goh xalq poeziyasi va frazeologiyaning bir qismi sifatida ko'rib kelinmoqda. Holbuki, maqollar xalqning necha ming yillar davomida turmush tarzida sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham ahloqiy baho sifatida umumlashtirilsa, tabularda xuddi shu ahloqiy baho taqiq yo'sinini olgan. Topishmoqlarda esa xalqning narsa va hodisalarga oid qarashlaridan iborat haqiqat o'sha narsa va hodisalar asliyatga xos yetakchi belgilarini epitetli ixcham iboralar shaklida aks ettiradi.

Dastlabki ikkala holat ahloqiy baho hikmat darajasida xalq donoligini umumlashtirsa, keyingisida fikrni harakatga solish asnosida xalqning topqirligi, sinchkovligi va kuzatuvchanligi va xozirjavobligini anglatadi. Binobarin, xalq paremiologik ijodi folklarning alohida va mustaqil turidir. Unda xalq e'tiqodining tarixiy izlari aks etgan. Xalq paremiologik ijodi o'ziga xos qonuniyalar va tamoyillarga ega. Uning aynan shu xususiyatlarini folklorshunoslikning paremiologiya sohasi o'rganadi, xalq paremiologik birliklarini to'plash bilan paremiografiya o'rganadi.

Paremiologiyada yaxlit fikrni ifodalovchi eng mayda birlik parema deb ataladi. H. Berdiyrovning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da keltirilishicha, Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm kabi iboralarni ikki planda o'rganadi :

1. Paremlar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsulo bo'lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining obyektidir, chunki, bu hikmatli iboralarning ko'pchiligi she'riy formaga o'xshaydi va ular o'xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash(anateza) paralelzm,

anaphora, qofiyalash, Eevfonik vositalar (alliteratsiya, assonans) kinoya, piching, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari qo'langan bo'ladi.

2. Paremlar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir, chunki ular so'zlartdan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa Grammatik hususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega. Paremlarning qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, lekin shunisi ma'lumki, ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan yashab kelmoqda. Hat qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketmaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilik insonlarning orzu-umidlari, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralargina ommalashadi, avloddan avloda o'tadi, asrlar osha yashaydi – paremalarga aylanadi.<sup>21</sup>

Ma'lum bir tilni tushunish uchun o'sha tilning so'z boyligi va Grammatik qoidalarini bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Permiakovning fikricha , boshqa bir tilni o'rganish va tushunish uchun, o'sha xalq madaniyatini o'rganish bilan bir qatorda, tildagi eng ko'p ishlatiladigan paremiologik minimumni (so'zlashuvdagi eng ko'p ishlatiladigan maqol, hikmatli so'zlarni) bilish kerak.

Ya'ni har bir til o'zining so'z boyligiga qarab paremiologik birliklar miqdori bir necha minglab, o'n minglab bo'lishi mumkin. Bu miqdorning ayrim qismigina doimo faol bo'ladi. Ingliz tilidagi buday doimo faol maqollarning ro'yxatini Mieder va Litovkina tuzib chiqishgan . Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

The apple doesn't fall from the tree;

Beauty is in only skin deep;

Beggars can't be choosers;

Don't judge a book its cover;

New brooms sweep clean;

Business before pleasure;

You can't teach an old dog new tricks;

Big fish eat little fish;

Haste makes wastle;

Better late than never;

Look before you leap;

When it rains, its pours;

When in Rome, do as Romas;

Time is money;

Never put off till tomorrow what you can do today;

Two wrongs don't make a right kabilar.

Bu kabi faol ishlatiladigan bunday birliklar bu tilni tushunishda til o'rganuvchilar uchun ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababdan so'zlarni o'rganish bilan bir qatorda paremiologik minimumni ham o'rganish muhim hisoblanadi. Qolgan miqdori esa faqat badiiy uslubga xos bo'lgan adabiyotlarda va muomala uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan, eskirgan bo'ladi.

Shunga qaramasdan, Hirch, Kett va Trefilning fikricha paremiologik minimum bo'yicha o'rnatilgan eng faol paremlar bilan cheklanib qolmaslik kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Kortmann B., Traugott E. C. Phraseology and Culture in English. Berlin, 2007. 524 p.
2. Cowie A. Phraseology, Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Clarendon Press, 1998. - 130p
3. Grzybek Peter. Introduction to Paremiology. – De Gruyter; Germany - 2015
4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, 2000. –398 b
5. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 238 с.
6. Кунин А.В. Внутренняя форма фразеологических единиц // Слово в грамматике и словаре. -М., 1984. – 12 с.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. - 466с.
8. Rasulov. R. Berdiyoroova H. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – O'qituvchi, 1984, 286b. – B.12
9. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. Toshkent, - 1990.